

OCHIQ MULOQOT



OCHIQ MULOQOT

Termiz shahar hokimi o'rinbosari Kamol Ashurov ishtirokida matbuot anjumani o'tkazildi. Matbuot anjumanida OAV xodimlari va ijtimoiy tarmoq faollari ishtirok etishdi va o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi.

Anjumanda hokim o'rinbosari K.Ashurov tomonidan Termiz shahrida yoshlar huquqbuzarligining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirdi.

Bugungi kunda Termiz shahrida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 89 ming 106 nafarni tashkil etadi.

Shundan 6 yoshgacha bo'lganlar 21 ming 718 nafar, 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lganlar, 33 ming 37 nafarni hamda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar 34 ming 351 nafarni tashkil etadi.

Ushbu 18 yoshgacha bo'lgan 54 ming 755 nafar yoshlarmiz shahardagi 129 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 28 ta davlat va 2 ta xususiy umumta'lim

maktablari, 1 ta Prezident maktabi, 2 ta akademik litsey, 1 ta kasb-hunar maktabi, 2 ta ixtisoslashtirilgan san'at maktabi, 3 ta texnikumlarida ta'lim tarbiya olib kelmoqda. Voyaga yetmagan yoshlarimiz o'rtasida joriy yilning 2 oyi davomida jinoyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak Termiz shahar hududida 5 ta jinoyatlar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan.

Shundan, jinoyatlar sodir etgan 5 nafar voyaga yetmaganlarning 3 nafari maktab o'quvchilari va 2 nafari kasb-hunar ta'limi va akademik litsey o'quvchilaridan iborat.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar turlari bo'yicha tahlil qilganimizda ularning 3 tasi O'g'irlik, 1 tasi Bezorilik, va 1 tasi Boshqa jinoyatlarni tashkil etadi.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish maqsadida qator ishlarni tashkil etmoqdamiz.

Shulardan birini misol keltiradigan bo'lsam birinchi navbatda mahalladagi yoshlar yetkachilari va profilaktika inshpektorlari bilan hamkorlikda ularning oilaviy sharoitlarini o'rganib chiqib, mavjud muammolarini hal etish hamda ularning bo'sh vaqtini band qilishga alohida e'tibor qaratish bilan birgalikda ularning ota-onalari bilan ham profilaktik suhbatlarni olib bormoqdamiz.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvarda "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarorining ijrosini ta'minlash hamda 5 tashabbus doirasida aholi salomatligini mustahkamlash va sog'lom-turmush tarzini shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyatini va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, shuningdek yoshlarning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli hil tadbir va musobaqalar tashkil etib kelmoqdamiz.

Bundan tashqari maktab va ta'lim muassasalarida xamkor tashkilotlar bilan birgalikda "TIG'" tadbirlari va "Tungi reydlar" muntazam amalga oshirilib kelinmoqda.




Image not found or type unknown

